

Luiza nega meni o'ziga yaqin olganiga sira aqlim yetmaydi. U meni yomon ko'rardи. Imkon bo'ldi deguncha ortimdan xunuk gaplarni gapirishini sezib yurardim. Yoqtirmasligini ochiq aytmasa-da, pichinglari-yu, xo'rsinishlaridan, chirolyi qo'llarini silkitishlaridan ham buni tushunib olish qiyin emasdi. Bir-birimizni yigirma besh yildan beri yaqindan bilardik. Lekin bu narsaning Luiza uchun hech qanday ahamiyati yo'q edi. U meni qo'pol, surbet va shafqatsiz odam, deb hisoblardi. Shunaqa yomon ko'rarkan, nega meni holi-jonimga qo'yamaydi, boshim qotardi. Dam-badam nonushta yoki tushlikka chaqirar, dam olish kunlari shahar tashqarisidagi uyiga ham yiliga bir necha marta taklif qilardi. Ehtimol, yolg'iz mengina uning niqob ostidagi haqiqiy basharasini ko'rishga qodirligimni Luiza bilgandir. Men ham ertami, kechmi, yuzimga shunaqa niqob kiyishimga umid qilgandir.

Luizani qizlik paytidanoq bilardim. O'sha paytlari u katta-katta ko'zlar ma'yus boquvchi nimjingga qiz edi. Ota-onasi Luizani haddan ziyod yaxshi ko'rishar, yerus ko'kka ishonishmasdi. Bunga Luizaning dardchilligi ham sabab edi. Bilishimcha, Luiza bolaligida qizilcha kasaliga chalinib, yuragi zaiflashib qolgan, endi u o'zini har tomonlama asrab-avaylab yashashga majbur edi. Tom Metlend uning qo'lini so'raganida, qizning ota-onasi qo'rqib ketishdi. Ular Luizaning bu ahvolda erga tegishga umuman yaramasligini bilishardi. Lekin ular boylar toifasidan emasdilar. Tom Metlend esa badavlat odam edi. U, Luiza xohlasa, osmondag'i oyni ham olib berishga va'da berdi va oxir-oqibat ular qizlarini Tom Metlendning qo'liga ishonib topshirishdi. Tom qoruvli, kuchli va kelishgan yigit bo'lishi bilan birga, yaxshigina sportchi ham edi. U Luizani jonidan ortiq yaxshi ko'rardи. Yuragi xasta sevgilisidan yaqin-orada judo bo'lishini bilardi, Luiza qolgan sanoqli yillarini baxtli o'tkazishi uchun qo'lidan kelgan hamma narsani qilishga hamisha tayyor edi.

U ilgaridan qoyilmaqom qilib bajarib yurgan sport mashqbalaridan ham voz kechdi. Yo'q, Luiza shunday bo'lismi xohlagani uchun emas, biror yoqqa ketmoqchi bo'lib turgan paytida har gal Luizaning yuragi sanchib qolgan uchun mashqlardan voz kechdi. Janjallashib qolishgan vaqtlarida Luiza eng yaxshi xotin qiyofasiga kirib, darrov Tomga yon bosardi. Keyin Luizaning yuragi bezovta qilar va u bir hafta musichai beozor bo'lib, to'shakka mixlanib yotardi. Shunday paytlarda Tom xotiniga qattiq gapirishga yuragi betlamasdi.

Bir safar Luiza o'zi judayam xohlab sayrga chiqib yayov sakkiz mil yo'l yurganini ko'rib, Tom MetlendBaga Luizaning sog'ligi uncha-muncha ayollarnikidan yaxshi ekanligini aytdim. Tom boshini chayqab, xo'rsindi:

"Yo'q, Luiza aslida judayam zaif. U dunyodagi eng yaxshi yurak mutaxassislar ko'riganidan o'tdi. Hammasi Luizaning sanoqli kunlari qolganini aytdi. Metin irodasi borligi uchun ham hozir o'zini shunday tutayapti".

Tom gaplarimni Luizaga aytB-dи.

"Buning azobini ertaga ko'raman", dedi Luiza menga qarab "uh" tortarkan: "Yana o'lim bilan yuzma-yuz bo'laman".

"Ba'zida menga sizda hech qanaqa kasallik yo'qday tuyuladi", dedim sekingina.

Gashli o'tgan mehmondorchiliklarda Luiza ertalabki beshlargacha raqs tushib charchamaganini, befayz o'tirishlarda esa mazasi qochib, Tom uni uyiga vaqtni olib ketganini bir necha marta ko'rgandim. Menga qarab siniqqina kulib qo'yan bo'lsa-da, boyagi gapim Luizaga yoqmaganini sezdim. Katta-katta ko'k ko'zlaridan kayfi qoqganligi bilinib turardi.

"Men sizni xursand qilish uchun o'layotganim yo'q", dedi u.

Luiza eridan ham ko'proq yashadi. Bir kuni ular yelkanli qaB-yiqda sayr qilib qaytishganidan keyin Tom qattiq shamollab qolib jon taslim etdi. Luizani isitish uchun uni uydagi bor gilamu ko'rpalari bilan o'rab qo'yishga to'g'ri keldi. Tom Luizaga katta bisot va bir qiz qoldirib ketdi. Luiza tasalli topmaydigan bir ahvolga tushib qoldi. Xasta yuragi bilan bu kulfatni ko'tara olganiga aql bovar qilmasdi. Bechora Tom Metlendni tuproqqa qo'yishda Luizaning do'stlari unga dalda bo'ldilar. Ular onasidan ham ajralib yetim bo'lib qolishi mumkin bo'lgan Luizaning qizi Irisga chindan qayg'ura boshlagan edilar. Shu bois, Luizaning tevaragida girdikapalak bo'lishardi. Do'stlari Luizaning qo'lini souvuq suvga urdirmadi, uni turli tashvishlardan xoli qilish uchun har qanday narsaga tayyor ekanliklarini bildirishdi. Darhaqiqat, ularga ish ham topildi, chunki Luiza biror og'irroq yoki yoqmaydigan yumush qilmoqchi bo'lsa, yuragi sanchib, bir o'lib-bir tirilardi. ВЂњAgar birov menga ko'z-quloi bo'lib turmasa, o'lishim aniqBТќ derdi Luiza. Shu ahvolida qizalog'i Irisni qanday katta qilishiga aqli yetmasdi. ВЂњNega yana erga tegmaysiz?ВЂќ, deb so'rashardi do'stlari. ВЂњOh, bu yuragim bilan erga tegish haqida o'ylashga ham botinolmaymanBТќ, derdi Luiza.

Lekin Tomning o'limidan keB-yin bir yil o'tgach, Luiza qo'lini so'ragan Jorj Xobhauzga rozilik berdi. Jorj kelishgan va anchagina badavlat odam edi. Bu nimjon ayolni panohiga olishiga rozilik berishganida, Jorjdan baxtiyor odamni ko'rmadim.

ВЂњMen sizni ko'p qynamaymanBТќ, derdi Luiza. Jorj shuhratparast harbiylardan edi. Lekin ishini tashlab qo'ydi. Luizaning sog'lig'i yomonlashib qishni Monte Karlo, yozni esa Dyuvilda o'tkazishga majbur bo'ldi. Jorj uch-to'rt kunlik umri qolgan xotinini qo'lidan kelguncha xursand qilishga ahd etdi.

ВЂњHayotim tugab borayaptibBТќ, derdi Luiza: ВЂњTinchgina o'lishga harakat qilamanBТќ.

Keyingi ikki-uch yil mobaynida Luiza xasta yurak bilan chirolyi kiyinib, eng qizg'in bazmB-larga borishni, do'riji-do'riji pul tikib qimor o'ynashni, baland bo'yli, chirolyi yigitlar bilan raqs tushishni va hatto ularga noz-karashma qilishni ham epladi. Luizaning birinchi eridagi matonat Jorj Xobhauzda yo'q edi va u Luizaning ikkinchi eri sifatida zimmasidagi tashvishlardan zerikib, ora-sira ichib yurishga majbur bo'ldi. Albatta, Jorj aroqqa mukkasidan ketganida bu qiliq Luizaga yoqmasdi. Ammo (Luizaning baxtiga) urush boshlandi. Jorj zahiradan o'z polkiga qaytib, uch oydan keyin halok bo'ldi. Bu zarba Luizani esankiratib qo'ydi. Lekin shunday musibatdan keyin ham u g'am-g'uussaga yo'l bermasligi lozimligini his qilardi. Agar o'sha paytda yuragi xuruj etganda hech kim bu haqda xabar topmagan bo'lardi. O'zini chalg'itish uchun Luiza Monte Karlodagi villasini oyoqqa turayotgan ofitserlarga mo'ljallangan shifoxonaga aylantirdi. Do'stlari unga bu tashvish og'irlik qilishini aytishdi.

ВЂњBu ish meni o'ldirishi aniqBТќ, dedi u: ВЂњBilaman. Lekin buning nima ahamiyati bor? BoshB-qalarga yordam berishim kerakBТќ.

Luiza o'lmadi. Qaytaga avvalgidan ham yashnab ketdi. Uning shifoxonasiga teng keladigan kasalxona butun Frantsiyada yo'q edi. Uni tasodifan Parijda uchratib qoldim. Restoranda novcha va juda kelishgan yosh frantsuz bilan tushlik qilayotgan ekan. ВЂњBu yerda shifoxonaga aloqador ishlar bo'yicha yuribmanBТќ, deb tushuntirdi u. Luiza kasalxonadagi ofitserlar unga mahliyo ekanligi haqida gapirdi. Ular Luizaning kasali og'irligini tushunisharkan va unga hech qanday yumush qoldirishmaskan. Go'yo ular Luizaga eridek g'amxo'rlik qilisharkan. Luiza xo'rsindi.

ВЂњBechora Jorj, shu yuragim bilan undan ko'p yashashimni kim ham o'ylabdi deysiz?ВЂќ

ВЂњEh, bechora Tom,ВЂќ dedim men.

Nega bu gapim unga yoqmaganini tushunmayman. U menga siniqqina jilmaydi, ko'zlar yoshga to'ldi.

ВЂњDoim o'limimni kutayotgandek gapirasiz...ВЂќ

ВЂњAytmoqchi, yuragingiz ancha sog'ayib qolibdi, deb eshitdim?ВЂќ

This is not registered version of Total-Doc Converter.
Bu fayl quragan shifokor ko'rígiga bordim. O'lishga tayyor bo'lib turishimni maslahat berdiib. Bú.

вЂњ Yo'g'-e, bunga yigirma yildan beri tayyorlanasiz-u? вЂќ

Urush tugagandan keyin Luiza Londonga ko'chib o'tdi. Endi yoshi qirqdan oshib qolgan, avvalgidek ozg'in va nimjon, ko'zлari katta-katta, yuzlari rangpar ayol bo'lsa ham, yigirma beshdan oshmagandek ko'rindi. Maktabni tugatib, bo'yga yetib qolgan Iris esa u bilan birga yashay boshlagandi.

вЂњU menga qaraydiвЂќ, derdi Luiza: вЂњTurgan gap, mendek qari nogiron bilan yashash unga qiyin bo'ladi. Lekin bu bir-ikki kun davom etadigan narsa. Irisning yo'q demasligi aniqbвЂќ.

Iris juda yaxshi qiz edi. Uni, onasining sog'lig'i yomonligini muntazam uqtirib, voyaga yetkazishgandi. Bola bo'lib u biror marta ham to'polon qilmagan edi. Onasini yolg'iz qoldirish mumkin emasligini doim yodida saqlardi. Mana endi Luiza qiziga:

вЂњHammaning joniga tekkan keksa ayol uchun o'zingni bag'ishlashingga chiday olmaymanвЂќ, deb qancha gapirmasin, u bu gaplarga qulq solmadi.

Luiza вЂњuhвЂќ tortib, qiziga farzandlik burchini ado etishga ruxsat berdi.

вЂњBolamga menga g'amxo'rlik qilish yoqadiвЂќ, dedi u.

вЂњDo'stleri bilan birga yurgani yaxshimasidi? вЂќ, deb so'radim.

вЂњE, buni unga doim aytaman. Do'stlaring bilan o'ynab-kulib yur, deb hech ko'ndirolmadim. Tepada xudo bor, birovning meni deb huzur-halovatini yo'qotishini hech qachon xohlamaganmanвЂќ.

Men bu gaplarni Irisga aytganimda, u shunday dedi: вЂњBechora oyijonim, mening do'stlarim bilan birga bo'lishimni, o'tirishlarga borishimni xohlaydi, endi biror joyga boraman deb turganimda yuraklari sanchib qoladi, shuning uchun uyda qolganim yaxshibвЂќ.

Lekin ko'p o'tmay Iris bir yigitga ko'ngil qo'ydi. Yosh do'stim, bama'ni bir yigit uning qo'lini so'radi va qiz rozi bo'ldi. Irisni juda yaxshi ko'rardim. Nihoyat o'zi uchun ham yasharkan-da, deb quvondim. Lekin bir kuni o'sha yigit tushkun bir ahvolda oldimga kelib, to'y qoldirilganini aytди. Iris onasini tashlab ketolmaskan. Bu mening ishim bo'lmasa ham, bahona topib, Luizanikiga bordim. Choy ichib o'tirgan paytida do'stlari kelib qolsa, u doim xursand bo'lardi.

вЂњIris erga tegmaskan, deb eshitdim? вЂќ, dedim muddaoga o'tib.

вЂњBilmayman. Men xohlaganim bilan u erga tegmaydi... Meni o'ylamay erga tegaver, deb tiz cho'kib iltimos qilsam ham,

вЂњSizni tashlab ketolmaymanвЂќ, deyaptiвЂќ.

вЂњQizingizga jabr qilmayapsizmi? вЂќ

вЂњBalki. Lekin bu bir-ikki oy davom etadi. Buning ustiga men вЂњO'z hayotidan voz kechib, menga qarasinвЂќ, deyayotganim yo'q-kubвЂќ.

вЂњAzizim Luiza. Bir-ikki oy deb, ikkita eringizni ko'mdingiz. To'g'ri, nimaga endi yana uch-to'rttasini narigi dunyoga jo'natmasligingiz kerak! вЂќ

вЂњBilaman! Men haqimda nima deb o'ylab yurgingizni. Yuragimning kasal ekaniga hech qachon ishonmagansiz, shundaymi? вЂќ

Luizaning ko'ziga tik qaradim.

вЂњTo'ppa-to'g'ri. Siz yigirma besh yil hammani laqillatdingiz. Siz dunyodagi eng xudbin, eng qabib ayolsiz. Anovi ikkita badbaxt erkakning umriga zomin bo'ldingiz. Endi bo'lsa qizingizni ham shu ko'yga solmoqchisizвЂќ.

Agar o'sha payt Luizaning yuragi to'xtab qolganda hayron bo'lmassdim. Uning quyushqondan chiqib ketishini kutgandim. U esa mena qarab muloyim jilmaydi.

вЂњBechora do'stim, yaqin kunlarda bu gaplarni menga aytganingizdan shunday afsuslanasizki... вЂќ

вЂњEndi Iris o'sha bolaga erga tegmaydimi? вЂќ

вЂњErga tegвЂќ, deb qizimdan iltimos qildim. Meni tashlab ketsa, o'lishimni bilaman. Mayli. Baribir, hamma meni yomon ko'radi. Odamlarga ortiqcha yukman... вЂќ

вЂњTashlab ketsang - o'lamanвЂќ, deb unga aytdingizmi? вЂќ

вЂњU meni shunga majbur qildiвЂќ.

вЂњO'zingiz biror ish qilishni xohlamasangiz, hech kim sizni majburlay olmaydiвЂќ.

вЂњXohlasa, o'sha yigitga ertagayoq erga chiqsin. Shu narsa meni o'dirsa, o'dira qolsinвЂќ.

вЂњKeling, bir tavakkal qilib ko'raylik, maylimi? вЂќ

вЂњMenga ozgina bo'lsayam rahmingiz kelmayaptimi? вЂќ

вЂњShunaqa tomoshalar ko'rsatgansizki, sizga rahmim kelishi qiyinвЂќ, dedim men.

Luizaning oppoq yuzlariga rang yugurdi. Luiza kuldi, lekin ko'zлari g'azab bilan qat'iy boqardi.

вЂњIrisning to'yi shu oyda bo'ladiвЂќ, dedi u: вЂњAgar menga biror narsa bo'lsa siz ham, Iris ham o'zingizni kechira olmassiz, deb umid qilamanвЂќ.

Luiza so'zida turdi. To'y vaqtı belgilandi. Katta sep buyurildi va taklifnomalar tarqatildi. Iris va yigit juda xursand bo'lishdi. To'y kuni ertalab soat o'nda, Luizaning, o'sha yovuz ayolning yuragi yana bir marta qattiq xuruj qildi va u o'ldi. Luiza o'zini o'dirgan qizi Irisni kechirib, astagina jon berdi.